NAVOIYURAN
Davlat korxonasi

Jahon uran bozori tendensiyalari –

2026-yil sentabr-oktabr sharhi



NAVOIYURAN
Davlat korxonasi

Jahon uran bozorining rivojlanish tendensiyalari: 2026-yil sentabr–oktabr oylari sharhi

Mundarija



ASOSIY NATIJALAR VA MUHIM TENDENSIYALAR



TALABNING O‘SISHI VA STRATEGIK KELISHUVLAR



URAN NARXLARI DINAMIKASI



INNOVATSIYALAR VA ILG‘OR YADRO YOQILG‘ISI TEXNOLOGIYALARI



GLOBAL TAKLIF VA YETKAZIB BERISH BO‘YICHA YANGI MAJBURIYATLAR



YADRO YOQILG‘ISI SIKLI, URANNI BOYITISH VA YADRO YOQILG‘ISINI ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARI




O‘ZBEKISTON VA “NAVOIYURAN” DK NING JAHON URAN TA’MINOTIDAGI ROLINING KENGAYIB BORISHI

NAVOIYURAN
State-owned Enterprise

ASOSIY NATIJALAR VA MUHIM TENDENSIYALAR

Joriy yil sentabr-oktabr oylarida jahon uran bozorida muhim o‘zgarishlar kuzatilib, uran xomashyosiga bo‘lgan talab bilan bir qatorda atom yoqilg‘isi yetkazib berish barqarorligini ta’minlash masalasi ham ustuvor ahamiyat kasb etdi. Dunyoning yetakchi davlatlari va energetika kompaniyalari uran qazib olish, uni boyitish hamda atom elektrostansiyalari yoqilg‘isi ishlab chiqarishga investitsiyalarni faollashtirdi. Xususan, AQSH o‘z ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va Rossiyaning uranni boyitish xizmatlariga qaramlikni kamaytirish choralarini jadallashtirdi. Namibiyada yangi uran loyihalarining rivojlanishi, ilg‘or atom yoqilg‘isi texnologiyalari bo‘yicha kelishuvlar hamda yuqori darajada boyitilgan past konsentratsiyali uran (HALEU) ta’minot tizimining shakllanishi atom energetikasining uzoq muddatli istiqbollariga ishonch ortayotganini ko‘rsatmoqda. Mavjud atom reaktorlarining ishlash muddatini uzaytirish, quvvatlarini modernizatsiya qilish va yangi avlod kichik modulli reaktorlarini rivojlantirish sharoitida sohaning asosiy e’tibori nafaqat uran qazib olishni ko‘paytirish, balki yadro yoqilg‘isi ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida barqaror ta’minot tizimini shakllantirishga qaratilmoqda.



NAVOIYURAN
State-owned Enterprise

URAN NARXLARI DINAMIKASI

2026-yil sentabr oyi davomida nisbatan barqaror saqlangan jahon uran narxlari oktabr oyida qayta o‘sishga yuz tutdi. Cameco kompaniyasining UxC va TradeTech tahliliy agentliklari ma’lumotlariga asoslangan ko‘rsatkichlariga ko‘ra, uran oksidining (U_3O_8) spot bozordagi narxi avgust oyidagi bir funt uchun 89,68 AQSH dollaridan sentabrda 89,63 dollarga biroz pasayib, oktabrda 91,55 dollarga yetdi va bir oyda 2,1 foizga oshdi. Uzoq muddatli shartnomalar bo‘yicha narxlar esa sentabrdagi 96,50 dollardan oktabrda 98 dollarga ko‘tarilib, 2026-yilning eng yuqori darajasini qayd etdi. Narxlarning o‘sishi bozordagi savdo faolligi pasaygan bir sharoitda kuzatildi. Xususan, UxC ma’lumotlariga ko‘ra, uchinchi chorakda spot bozordagi savdo hajmi o‘tgan yilning shu davridagi 15 million funtdan 9 million funtgacha, ya’ni 40 foizga qisqardi. Shunga qaramay, uzoq muddatli shartnomalarda yuqori narxlarning saqlanib qolishi energetika kompaniyalari kafolatlangan uran yetkazib berish uchun ko‘proq mablag‘ to‘lashga tayyorligini ko‘rsatmoqda. Bu esa atom energetikasi kengayib borayotgan sharoitda ishonchli uran ta’minotiga talab va raqobat kuchayayotganidan dalolat beradi.

NAVOIYURAN
State-owned Enterprise

TAKLIF VA YANGI TA’MINOT ISTIQBOLLARI

2026-yil oktabr oyida jahon uran ta’minotini kengaytirish yo‘lida muhim qadamlar tashlandi. Xususan, “Bannerman Energy” va “CNNC Overseas” qo‘shma korxonasi Namibiyadagi Etango uran konini to‘liq miqyosda o‘zlashtirish va qurilish ishlarini boshlash to‘g‘risida qaror qabul qildi. 2028-yilda ishlab chiqarishni boshlash rejalashtirilgan mazkur loyiha 207 million funt uran oksidi (U_3O_8) resurslariga ega bo‘lib, dastlab yiliga 3,5 million funt, keyinchalik esa 6,7 million funtgacha mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini nazarda tutadi. Shu bilan birga, sentabr oyida Nigerda “Madaouela” loyihasini rivojlantirish bo‘yicha yangi konchilik kelishuvi imzolandi. Ushbu konning uran resurslari 116,5 million funt uran oksidiga baholanmoqda. Mazkur loyihalar Afrikaning jahon uran bozoridagi mavqeini mustahkamlash, xalqaro yetkazib berish manbalarini diversifikatsiya qilish va atom energetikasining ortib borayotgan ehtiyojlarini uzoq muddatda ta’minlashga xizmat qilishi kutilmoqda.

URANGA BO‘LGAN TALABNING O‘SISHI VA STRATEGIK KELISHUVLAR

NAVOIYURAN
State-owned Enterprise

2026-yil sentabr-oktabr oylarida atom energetikasining strategik ahamiyati ortishi fonida uran va yadro yoqilg‘isining uzoq muddatli ta’minotini kafolatlashga qaratilgan xalqaro hamkorlik yanada faollashdi. Xususan, Janubiy Koreyaning “Korea Hydro & Nuclear Power” (KHNP) va Fransiyaning Orano kompaniyalari uranni boyitish sohasida hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha kelishuvni imzoladi. Shu bilan birga, Hindiston va O‘zbekiston o‘rtasida uranni uzoq muddatli yetkazib berish yuzasidan muzokaralar davom ettirildi. Hindiston 2047-yilga qadar atom elektr stansiyalari quvvatini 100 gigavattga yetkazishni maqsad qilgan. AQSHda esa ma’lumotlarni qayta ishlash markazlari va sun’iy intellekt texnologiyalari rivojlanishi hisobiga elektr energiyasiga talabning ortishi atom energetikasini kengaytirishga yangi turtki bermoqda. Mavjud reaktorlarning ishlash muddatini uzaytirish, ularni modernizatsiya qilish va yangi atom elektr stansiyalarini qurish rejalari jahon bozorida uranga bo‘lgan talabning uzoq muddatli o‘sishini ta’minlashi kutilmoqda. Bu jarayonda ishonchli yetkazib beruvchilar bilan strategik hamkorlik va uzoq muddatli shartnomalar energetika kompaniyalari uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.



NAVOIYURAN
State-owned Enterprise

INNOVATSIYALAR VA ILG‘OR YADRO YOQILG‘ISI TEXNOLOGIYALARI




2026-yil sentabr-oktabr oylarida jahon atom sanoatida yangi avlod yadro yoqilg‘isini ishlab chiqish va tijoriy miqyosda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishildi. Xususan, Fransiyaning “Framatome” kompaniyasi AQSHning amaldagi atom reaktori uchun uran-235 izotopi 5 foizdan yuqori darajada boyitilgan LEU+ yoqilg‘isini yetkazib berish bo‘yicha ilk tijorat shartnomasini imzolaganini ma’lum qildi. 2028-yildan boshlanishi rejalashtirilgan ushbu yetkazib berish reaktorlarning yoqilg‘i almashtirish oralig‘idagi ishlash muddatini uzaytirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, “Antares Nuclear” va “BWXT” kompaniyalari kichik quvvatli reaktorlar uchun yuqori ko‘rsatkichli past boyitilgan uran (HALEU) asosidagi dastlabki bir tonna TRISO yoqilg‘isini yetkazib berish bo‘yicha kelishuvni imzolashdi. “Urenco” va “Thorizon” esa eritilgan tuz asosida ishlovchi reaktorlar uchun yangi yoqilg‘i texnologiyalarini ishlab chiqish imkoniyatlarini o‘rganishni rejalashtirmoqda. Mazkur tashabbuslar atom energetikasida ilg‘or yoqilg‘i turlariga o‘tish jarayoni jadallashayotganini ko‘rsatib, uran yetkazib beruvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda hamda uranni boyitish va yadro yoqilg‘isi ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashgan quvvatlarga talabni oshirmoqda.

NAVOIYURAN
State-owned Enterprise

YADRO YOQILG‘ISI SIKLI, URANNI BOYITISH VA YOQILG‘I ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARI

2026-yil sentabr–oktabr oylarida jahon atom sanoatida yadro yoqilg‘isi ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tashqi yetkazib beruvchilarga qaramlikni kamaytirishga qaratilgan investitsiyalar faollashdi. Xususan, Cameco kompaniyasi AQSHning Paduka shahrida “Global Laser Enrichment” tomonidan qurilishi rejalashtirilgan korxonaning kelgusidagi mahsulotlarini xarid qilish bo‘yicha eksklyuziv huquqqa ega bo‘ldi. Mazkur loyiha AQSHning vakolatli organlari tomonidan ijobiy ekologik baholandi. Shu bilan birga, Centrus kompaniyasi Ogayo shtatidagi uranni boyitish quvvatlarini kengaytirish doirasida Paykton korxonasi uchun yangi ishlab chiqarilgan dastlabki sentrifugani yetkazib berdi. Westinghouse kompaniyasi esa 2030-yilda ishga tushirilishi rejalashtirilgan “LEU+” yadro yoqilg‘isi ishlab chiqarish zavodiga 1 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritishini e’lon qildi. Janubiy Afrikada “Quantum Leap Energy” va “Necsa” kompaniyalari yuqori darajali past boyitilgan uran (HALEU) ishlab chiqarish bo‘yicha mahalliy quvvatlarni yaratish tashabbusini ilgari surdi. Ushbu loyihalar jahon atom energetikasida uran qazib olishni ko‘paytirishning o‘zi yetarli emasligini, uranni boyitish va yadro yoqilg‘isi ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish ham strategik ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatmoqda.



NAVOIYURAN
State-owned Enterprise

O‘ZBEKISTON VA “NAVOIYURAN” DK NING JAHON URAN TA’MINOTIDAGI ROLINING KENGAYISHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sohadagi yangi ko‘rsatmalari doirasida mamlakat uran sanoatini jadal rivojlantirish, xususan, yillik uran qazib olish hajmini 2026-yildagi 7 500 tonnadan 2030-yilga qadar 15 000 tonnaga, ya’ni ikki barobarga oshirish hamda aniqlangan uran zaxiralarini 200 ming tonnaga yetkazish vazifalari belgilandi. Jahon bozorida uranga bo‘lgan talab 2030-yilgacha 28 foizga oshishi kutilayotgan bir paytda ushbu tashabbus mamlakatning xalqaro uran bozoridagi mavqeini mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish, qayta ishlash quvvatlarini modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish infratuzilmasiga investitsiyalarni ko‘paytirish “Navoiyuran” davlat korxonasining eksport salohiyatini oshirish hamda xorijiy hamkorlar bilan uzoq muddatli yetkazib berish shartnomalarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin. Belgilangan rejalar amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonning dunyodagi yetakchi uran ishlab chiqaruvchi davlatlar qatoridagi o‘rni yanada mustahkamlanib, global uran ta’minotining barqarorligi va diversifikatsiyasiga muhim hissa qo‘shilishi kutilmoqda.

Mazkur axborot-tahliliy sharh faqat ma’lumot va tahliliy maqsadlarda tayyorlangan bo‘lib, unda davlat organlari, xalqaro tashkilotlar, kompaniyalarning rasmiy ma’lumotlari hamda ishonchli sohaviy nashrlar kabi ochiq manbalardan foydalanilgan. Sharhda keltirilgan ma’lumotlar tayyorlangan vaqtdagi holatni aks ettiradi va keyinchalik o‘zgarishi mumkin. “Navoiyuran” davlat korxonasi ushbu ma’lumotlarning to‘liqligi, ishonchliligi, aniqligi va doimiy dolzarbligini kafolatlamaydi hamda ochiq manbalardagi ma’lumotlar yuzasidan javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.